


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-sentyabr)

2018 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 23 044,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,2 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 9 367,6 mln. AQSh dollarga (0,4 %ga kamaygan) va import hajmi 13 677,1 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 33,3 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 4 309,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
(mln. AQSh dollari)




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan

qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Tashqi savdo aylanmasida eksport va importning ulushi (chorak uchun, %)




2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

Respublikada tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % oshdi va 38,6 %ni tashkil yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 66,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,4 %ga tushdi.

**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
tovar va xizmatlar eksportidagi hajmi**
(chorak uchun, mln. AQSh dollari)



**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**


(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Xitoy	4 429,0	1 937,2	2 491,8	19,2	129,3
Rossiya	4 178,3	1 532,7	2 645,6	18,1	120,1
Qozog`iston	2 136,4	1 039,8	1 096,6	9,3	144,6
Turkiya	1 520,6	619,7	900,9	6,6	140,0
Koreya Respublikasi	1 288,5	67,4	1 221,1	5,6	134,0
Germaniya	526,0	31,9	494,1	2,3	112,8
Afg`oniston	473,8	472,4	1,4	2,1	110,9
Latviya	336,7	31,2	305,5	1,5	163,7
AQSh	331,9	22,8	309,1	1,4	196,0
Ukraina	325,8	74,3	251,5	1,4	170,5
Yaponiya	316,9	10,0	306,9	1,4	2,6 b.
Qirg`iziston	285,0	185,2	99,8	1,2	145,1
Tojikiston	282,5	165,8	116,6	1,2	158,5
Belarus	278,3	27,3	251,0	1,2	2,5 b.
Eron	228,5	135,8	92,7	1,0	112,4
Frantsiya	224,3	135,3	89,0	1,0	115,8
Italiya	206,6	17,1	189,5	0,9	156,1
Hindiston	203,5	17,7	185,8	0,9	76,3
Litva	198,9	7,3	191,6	0,9	103,7
Turkmaniston	157,5	31,7	125,8	0,7	117,0

EKSPORT

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida eksport hajmi 9 367,6 mln. AQSh dollarga (0,4%ga kamaygan) teng bo`ldi. eksport tarkibida tovarlarning ulushi 75,9 %ga ega bo`lib, bular asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari (20,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,8 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,3 %) guruhlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tuzilmasi, (foizda)



Eksport tarkibi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	9367,6	99,6	100,0	3690,5	121,3	100,0	5677,1	89,2	100,0
Paxta tolasi	172,4	63,3	1,8	3,1	34,1	0,1	169,3	64,3	3,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	822,3	139,5	8,8	553,2	138,8	15,0	269,1	141,0	4,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	685,0	106,0	7,3	279,7	111,4	7,6	405,3	102,5	7,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1891,5	161,7	20,2	899,2	146,6	24,3	992,3	178,3	17,5
Qora va rangli metallar	635,5	98,7	6,8	91,9	92,8	2,5	543,6	99,7	9,6
Mashina va asbob-uskunalar	146,4	58,1	1,6	106,7	65,8	2,9	39,7	44,2	0,7
Xizmatlar	2257,3	121,9	24,1	1133,2	124,5	30,7	1124,1	119,3	19,8
Boshqalar	2757,2	69,3	29,4	623,5	104,2	16,9	2133,7	63,1	37,6

**2018 yilning
yanvar-sentyabr oylarida eksport qilingan
ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi**


	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
meva mahsulotlari	305,8	164,3	alkogolli va alkogolsiz ichimliklar	8,8	71,0
sabzavot mahsulotlari	231,4	158,6	qayta ishlangan meva- sabzavot mahsulotlari	21,1	96,8
bug`doy	20,5	56,0	qalampir	5,9	120,4
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	352,6	109,1	farmatsevtika mahsulotlari	9,7	3,0 b.
ammiak	1,4	20,6	karbonatlar; peroksokarbonatlar	11,1	85,4
o`g`itlar	105,1	86,1	kimyoviy shtapelli tola	5,1	102,0
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari					
tabiiy gaz	1712,3	168,7	qayta ishlangan neft mahsulotlari	28,4	58,3
elektroenergiya	124,2	129,2	qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	26,6	2,6 b.
Qora va rangli metallar					
mis va mis buyumlari	319,6	89,1	rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	168,0	99,3
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar	136,0	128,1	qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	1,2	31,6
Mashina va asbob-uskunalar					
simlar va kabellar	14,7	75,8	engil avtomobil	27,7	31,8
transformatorlar va akkumulyatorlar	10,1	56,4	avtobuslar va mikroavtobuslar	3,7	137,0

elektr zanjirlarini almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	7,6	52,1	yuk vagonlari (tsisternalarni qo'shgan holda)	9,6	3,2 b.
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	2,8	107,7	yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	5,7	116,3
monitorlar va proektorlar	7,3	143,1	tirkama va yarim tirkamalar	1,3	118,2
Boshqalar					
to'qimachilik mahsulotlari	968,3	114,8	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	9,0	97,8
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	63,1	81,8	shisha va shisha buyumlar	7,7	88,5
qog'oz, karton va matbaa buyumlari	13,6	3,4 b.	daraxtlar va boshqa o'simliklar	1,8	112,5
sopol buyumlar	10,6	94,6	velosipedlar, tepkili avtomobillar; qo'g'irchoqlar uchun kolyaskalar; qo'g'irchoqlar	1,4	93,3

Tovar va xizmatlar eksportining oylari kesimida o'sish sur'atlari
(o'tgan oyga nisbatan, foizda)




Eksport tarkibi, (foizda)




Xizmatlar eksporti hajmi 2257,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 24,1 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,9 %ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (foizda)



Respublikadan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 37,1 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin

**Respublikaning ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi**
(yanvar-sentyabr oylari)

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi		Koreya Respublikasi		Qozog`iston	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Jami eksport	1534,6	1532,7	1421,1	1937,3	81,2	67,4	758,2	1039,8
paxta tolasi	7,1	2,7	16,7	51,1	-	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	102,0	133,1	26,6	40,0	1,7	3,2	245,2	330,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	90,7	124,4	134,7	118,1	2,2	4,4	71,6	76,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	354,2	426,3	409,3	844,9	0,0	0,0	253,3	434,7
qora va rangli metallar	36,7	27,1	93,0	56,0	0,2	2,7	35,3	26,8
mashina va asbob-uskunalar	74,2	45,2	11,9	3,8	3,3	0,5	33,6	30,2
xizmatlar	446,9	337,7	500,2	523,8	48,4	42,5	50,9	76,1
boshqalar	422,9	436,3	228,8	299,6	25,3	14,1	68,4	65,0

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 873,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 649,4 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 50,0 %).

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 512,6 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 231,4 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 265,7 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan. Shuningdek, 229,3 ming tonna meva va rezavorlar 305,8 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,2 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi, mln.AQSH.dollar



Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-sentyabr			2018 yil yanvar-sentyabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
Qozog`iston	331,3	229,2	52,9	441,2	315,4	48,6
Rossiya	112,2	79,9	18,5	168,2	118,6	18,3
Qirg`iziston	40,9	24,4	5,6	68,1	59,8	9,2
Afg`oniston	25,9	22,0	5,1	52,6	38,7	6,0
Xitoy	9,2	7,1	1,6	32,2	23,0	3,5
Vetnam	0,9	0,6	0,1	22,0	14,2	2,2
Turkiya	17,6	21,0	4,8	15,0	16,6	2,6
Pokiston	1,4	0,9	0,2	18,2	14,2	2,2
Eron	6,2	5,4	1,2	9,1	7,3	1,1
Ukraina	3,7	2,6	0,6	7,5	5,2	0,8
Belarus	2,5	2,3	0,5	4,7	4,6	0,7
BAA	4,9	4,1	0,9	4,0	3,5	0,5
Iroq	6,3	8,3	1,9	3,7	4,0	0,6
Hindiston	14,2	9,0	2,1	4,1	2,7	0,4
Latviya	3,0	2,1	0,5	3,7	2,9	0,4
Ozarbayjon	1,9	2,1	0,5	2,3	2,5	0,4
Boshqalar	12,2	11,9	2,7	16,8	16,1	2,5

To'qimachilik mahsulotlari eksporti

2018 yilning o'tgan davri mobaynida 968,3 mln. AQSh dollari miqdorida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 14,8 %ga o'sib, umumiy eksport hajmining 10,3 %ini tashkil qildi. eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (57,3 %), tayyor to'qima matolar va tikuvchilik kiyimlari (22,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 320 turdan ortiq mahsulotlar dunyoning 55 ta davlatiga eksport qilindi.


To'qimachilik mahsulotlarining tarkibi



IMPORT

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida import hajmi 13 677,1 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 33,3 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (40,7%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,3 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (8,7 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tuzilmasi, (foizda)



Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	13677,1	133,3	100,0	5200,9	145,5	100,0	8476,2	126,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	1193,3	121,9	8,7	879,0	189,7	16,9	314,3	61,0	3,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1819,5	110,6	13,3	346,5	116,4	6,7	1473,0	109,3	17,4
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	647,0	129,4	4,7	618,7	128,5	11,9	28,3	151,3	0,3
Qora va rangli metallar	1313,6	138,5	9,6	903,6	146,1	17,4	410,0	124,4	4,8
Mashina va asbob-uskunalar	5559,8	149,8	40,7	780,6	171,9	15,0	4779,2	146,7	56,4
Xizmatlar	1657,6	121,5	12,1	736,3	115,5	14,1	921,3	126,8	10,9
Boshqalar	1486,3	133,9	10,9	936,2	150,4	18,0	550,1	112,9	6,5

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi


	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
shakar	281,4	x	hayvon yoki o'simlik yog`-moylari	38,3	116,1
bug`doy	189,3	151,2	qandolat mahsulotlari	37,0	120,1
un	87,9	124,5	pista moyi	15,2	22,9
tayyor hayvon yemi	90,3	142,7	margarin	21,0	90,1
choy	40,6	99,0	tsitrus mevalar	16,8	129,2
kartoshka	36,7	1,7 b.	go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	12,0	181,8
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
farmatsevtika mahsulotlari	605,3	94,2	o'simliklarni o'stirish regulyatorlari	42,4	126,9
plastmassa va plastmassa buyumlar	405,0	119,3	kimyoviy zarralar	44,2	116,0
kauchuk i rezina mahsulotlari	161,3	145,6	kimyoviy shtapelli tola	43,5	101,9
organik kimyo birikmalari mahsuloti	97,7	106,8	aralashmalar va erituvchilar	38,3	137,8
parfumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	108,3	118,7	kaustik soda	26,6	142,2
bo`yoq ekstraktlari	93,0	107,3	kimyoviy va mineral o`g`itlar	11,7	2,3 b.
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari					
neftni qayta ishlash mahsulotlari	363,9	100,6	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	17,0	138,2
neft xom-ashyosi	196,6	2,5 b.	elektroenergiya	42,5	2,0 b.

Qora va rangli metallar					
qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	1166,8	138,7	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	146,8	136,9
Mashina va asbob uskunalar					
avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	585,9	110,4	ekskavatorlar va buldozerlar	230,9	2,8 b.
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	403,0	2,2 b.	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrifugalar	226,6	122,1
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	262,4	2,9 b.	engil avtomobillar	167,3	171,6
konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	304,8	142,7	shinalar va pokrishkalar	149,9	170,0
qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunolari	235,0	1,8 b.	tibbiy asbob-uskunalar	127,9	84,1
Boshqalar					
yog`och va yog`och buyumlar	461,9	135,1	boshqa tirik o`simliklar	33,8	135,2
qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar	159,0	104,3	asbest	35,8	156,3
tsement	122,9	7,6 b.	qimmatbaho bo`lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	24,3	121,5
rangli metall konsentratlari va rudalari	81,6	106,0	o`rindiqli mebellar	19,4	94,2
tosh, gips va keramik buyumlar	64,5	98,9	o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari	15,3	73,6
qurilish majmualari konstruksiyasi	103,7	3,3 b.	yirik shohli mollar	29,1	157,3
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	49,9	123,8	tirik parrandalar	7,1	102,9

Tovarlar va xizmatlar importining oylar kesimida o`shish sur`atlari (o`tgan oyga nisbatan, foizda)




Import tarkibi, (foizda)



Xizmatlar importi hajmi 1657,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 12,1 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,5 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

**Respublika importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**



2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublikaga 156 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 8 356,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 61,0 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan

tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko`rish mumkin.

**Mashina va asbob-uskunalar import qilingan
asosiy hamkor davlatlar**


Davlat nomi	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	ulushi, %
Xitoy	1520,1	130,6	27,3
Koreya Respublikasi	876,4	132,5	15,8
Turkiya	488,9	232,3	8,8
Rossiya	484,1	151,2	8,7
Germaniya	371,8	126,4	6,7
Yaponiya	300,2	301,7	5,4
Boshqalar	1 518,2	x	27,3

**Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

Davlat nomi	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	ulushi, %
Xitoy	458,4	113,3	25,2
Rossiya	261,0	122,0	14,3
Turkiya	147,1	128,6	8,1
Koreya Respublikasi	128,7	109,4	7,1
Hindiston	102,0	63,0	5,6
Latviya	98,1	666,1	5,4
Boshqalar	624,2	x	34,3

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlar sentyabr oyida, avgust oyiga nisbatan 207,3 mln. AQSh dollarga kamroq import qilindi va 1656,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**